

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

SOLIYEV TURSUNBOY IZZATILLO O'G'LI

**URAN YEMIRILISH ZANJIRI RADIONUKLIDLARI ORASIDAGI
RADIOAKTIV MUVOZANAT BUZILISHINI BAHOLASH**

01.04.01 – Eksperimental fizikaning asboblari va usullari

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Soliyev Tursunboy Izzatillo o‘g‘li

Uran yemirilish zanjiri radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat
buzilishini baholash..... 3

Солиев Турсунбой Иззатилло угли

Оценка нарушений радиоактивного равновесия между радионуклидами
в цепочке распада урана..... 21

Soliyev Tursunboy Izzatillo o‘g‘li

Assessment of disturbances in the radioactive equilibrium between
radionuclides in the uranium decay chain..... 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 41

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

SOLIYEV TURSUNBOY IZZATILLO O'G'LI

**URAN YEMIRILISH ZANJIRI RADIONUKLIDLARI ORASIDAGI
RADIOAKTIV MUVOZANAT BUZILISHINI BAHOLASH**

01.04.01 – Eksperimental fizikaning asboblari va usullari

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3 PhD/FM411 raqami bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya ishi Navoiy davlat pedagogika instituti hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning internet sahifasida (www.inp.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muzafarov Amrullo Mustafayevich
kimyo fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Kurbanov Baxtiyar Ibragimovich
texnika fanlari doktori, professor

Kulmatov Rashid Anorovich
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel. (+99871) 289-31-41; faks: (+99871) 289-36-65; e-mail: info@inp.uz).

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, YaFI. Tel. (+99871) 289-31-19.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ da tarqatildi.
(2024-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Yu.Tashmetov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi f.-m.f.d., professor

O.R.Tojiboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.PhD,
katta ilmiy xodim

I.Nuritdinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari
f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda muqobil energiya hosil qiluvchilardan biri uran mahsulotlari bo'lib, ulardan atom elektr stansiyalarida ishlatiladigan yadro yoqilg'ilari olinadi. Uranni olishda va uni yadro yoqilg'isi sifatida ishlatishda, uning tozaligiga hamda xodimlarga radiatsion ta'siri jihatidan maxsus ehtiyot choralarini ko'rish talab etiladi. Yadro yoqilg'isi sifatida foydalanishga yaroqli uran mahsulotlari ularning radionuklid tarkibi bo'yicha belgilangan Xalqaro standart talablariga javob berishi kerak. Bundan tashqari, uran mahsuloti yoki uran tarkibli namunalardagi radionuklidlardan – ^{234}U , ^{235}U , ^{226}Ra birining miqdori ko'payib ketishi ushbu mahsulotlarni saqlash joylaridagi radiatsion fonning oshib ketishiga olib keladi. Shu sababli uranning tabiiy yemirilish zanjiri radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat buzilish omillarini baholash masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Bugungi kunda dunyoda uran mahsulotlari tarkibida ^{238}U , ^{235}U , ^{234}U , ^{226}Ra – radionuklidlarni aniqlash, ^{234}U va ^{238}U , ^{226}Ra va ^{238}U radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat buzilishlarni baholash uchun turli xil yadro-fizikaviy usullarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunday tadqiqot natijalari radiatsiyaning zararli ta'siridan himoya qilish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi, shu jumladan, uran tarkibli namunalarni saqlanadigan joylarda radiatsion fonni minimallashtirib, xalqaro va milliy standartlarga mos keladigan qiymatlarga keltirish imkoniyatini yaratadi.

Respublikamizda uran ishlab chiqarish jarayonlarining xodimlarga va atrof-muhitga radiatsion ta'sirini nazorat qilishning yadro-fizikaviy usullarining amaliy hamda nazariy asoslarini ishlab chiqishda muayyan natijalarga erishilgan. “Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi”ning uchinchi yo'nalishida ilg'or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni amaliyotga joriy etish orqali amaliy natijalarga erishilisi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida” farmonida quyidagi muhim vazifalar belgilab berilgan “...milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishni ta'minlash uchun ishlab chiqarish siyosatini davom ettirish, yalpi ichki mahsulotning sanoat ishlab chiqarish ulushini 1,4 baravar oshirish ...”¹, “... utilizatsiya qilish, zararsizlantirish, konservatsiya qilish va texnogen chiqindilarni belgilangan chegaralardan chetga chiqmasligini ta'minlash ...”². Shu munosabat bilan uran yemirilish zanjiridagi radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanatni baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida”gi farmoni, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-sonli “2019-2030-yillar davrida

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida”gi farmon

² Vazirlar Mahkamasining 30.03.2021-yildagi 170-sonli Farmoniga asosan “Navoiyuran” davlat korxonasi, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg'armasi” davlat muassasasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida

O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” qarori hamda ushbu sohada boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energotejamkorlik va muqobil energiya manbalari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy mutaxassis va olimlardan, jumladan, amerikalik (John Arrington, Ursula Bassler, Sekhar Basu, Felix Boehm, Walter Dunham Claus, Harro Wilks Fulbright, Alexandra Gade, Magdalena Gonzalez Sanchez, Hanna Nasser), rossiyalik (Shurigin S.V., Ovseychuk V.A., Laskorin B.N., Lobanov D.P., Arens V.J., Djabiyev O.A., Myasoyedov V.N., Grabovnikov V.A., Gridin O.M., Avrorin E.A., Aleksandrov A.P., Alexin L.A., Aleksandrov V.A., Arsimov L.A., Petrjak A.K., Ovchinnikov F.Ya., Mostovoy V.I.) va o‘zbekistonlik olimlardan (Yuldashev B.S., Muminov T.M., Bekjanov R.B., Muxammedov S.M., Kist A.A., Kulmatov R.A., Sattarov G.S.) va boshqalar uran yemirilish zanjiridagi radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanatni baholashda fan hamda amaliyot rivojiga katta hissa qo‘shdilar.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida uran rudalarida texnologik mahsulotlarda ^{238}U , ^{235}U , ^{234}U , ^{226}Ra – radionuklidlarini aniqlashning yadro-fizikaviy uslubiyatlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, uran yemirilish zanjiridagi radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanat buzilishi holatlari ham kuzatilgan.

Shu bilan birga, hozirgi kunga qadar uran yemirilish zanjiridagi radionuklidlar o‘rtasidagi radioaktiv muvozanatning buzilishi tayyor uran mahsuloti sifatining pasayishiga va uran omborlarida radiatsion fon qiymatini oshib ketishiga ta’sir qiluvchi yadro-fizikaviy omillar kam o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Navoiy davlat konchilik va texnologiya universitetining BA-A-13-015 “Mahalliy reagentlar yordamida yer ostida uranini tanlab eritish texnologik rejimni ishlab chiqish” (2020-2022) mavzusidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turli uran konlarida ^{234}U radionuklidlar konsentratsiyasini aniqlash, hamda uran-238 yemirilish zanjiridagi radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanat buzilishining radiatsion fon qiymatiga ta’sirini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

uran-238 yemirilish zanjiri radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyentining – K_m uran rudalarining yoshiga bog‘liqligi qonuniyatlarini o‘rganish;

texnogen obyektlardagi $^{226}\text{Ra}/^{238}\text{U}$ va $^{234}\text{U}/^{238}\text{U}$ radionuklidlar orasida radioaktiv muvozanat buzilishini radiatsion fonga bog‘liqligini eksperimental baholash;

turli uran konlaridan olingan uran namunalarida ^{234}U radionuklidining massa ulushini eksperimental baholash;

Zafarobod koniga tegishli uran rudalarining yoshini aniqlash bo'yicha eksperimental tadqiqotlar o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti uran namunalari, uran konlari, uran rudalari, uran chiqindilarini saqlash omborlari, uran mahsulotlari omborlari, uranni yer ostida tanlab eritish maydonlaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti radioaktiv muvozanatning uran rudalari yoshiga bog'liqligi, texnogen maydonlardagi radioekologik holat, turli uran konlarida ^{234}U radionuklidining tarqalish qonuniyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot usullari: radiometriya usullari, alfa, gamma-spektrometriya, massa-spektrometriya, rentgenofluoressensiya, nazariy hisob-kitoblar natijalarini matematik qayta ishlash usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uran-238 yemirilish zanjiri radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti – K_{rm} ning uran namunalari yoshiga bog'liqligi asosida uran rudalarining yoshini aniqlash uslubi ishlab chiqilgan;

^{234}U va ^{238}U radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti – K_{rm} oshishi radiatsion fon qiymatining chiziqli oshishiga olib kelishi, eksperimental o'rnatilgan qonuniyat asosida uran ishlab chiqarish texnogen obyektlari lokal maydonlarida radiatsion holatni baholash usuli ishlab chiqilgan;

alohida uran konlaridan olingan uran mahsulotlari tarkibida ^{234}U radionuklidining miqdorlari muvozanatdagi massa miqdori – 53,41 $\mu\text{g/g}$ dan farq qiluvchi qiymatlari, ya'ni 48,4 $\mu\text{g/g}$ dan 69,9 $\mu\text{g/g}$ gacha bo'lishi eksperimental aniqlangan;

ishlab chiqilgan metodika asosida birinchi marta Zafarobod konidagi uran rudalarining yoshi 2,1 dan 2,5 milliard yilgacha bo'lgan oraliqda bo'lishi eksperimental aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

$^{226}\text{Ra}/^{238}\text{U}$ va $^{234}\text{U}/^{238}\text{U}$ radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyentining qiymatlariga qarab qattiq uran namunalari hamda uran mahsulotlari saqlash joylarida radiatsion fon qiymatini nazorat qilish imkoniyatlari baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy tadqiqot usullari va o'lchash vositalarini qo'llagan holda olingan natijalarni zamonaviy kompyuter dasturlari yordamida qayta ishlash, natijalarni xalqaro standart namunalari qiyoslash, parallel tahlillar, turli tadqiqotchilar va laboratoriyalar ma'lumotlarini taqqoslash bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uran rudalarining yoshini aniqlash usuli va ularning radiatsion holatini baholash uran rudalarining atrof-muhitga radiatsion ta'sirini yanada aniqroq baholash imkonini ochishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati uran yemirilish zanjiridagi radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyentining tajriba yo'li bilan topilgan qiymatlari uran rudalari yoshini aniqlashda va uran konlarining geologik ma'lumotlar bazasini yaratishda, uran ishlab chiqarish texnogen obyektlaridagi

radiatsion fon qiymatlarini aniqlashda hamda sanoat obyektlari hududlarini radioekologik monitoring qilish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uran yemirilish zanjiridagi radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanatning buzilish omillarini baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uran rudalarining yoshini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan uslub "NKMK" AJ da qo'llanilgan (Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJ ning 2023-yil 5-oktyabrdagi 23-01-07/489-sonli ma'lumotnomasi). Natijalardan foydalanish uran rudalarining yoshini hisoblashda ishonch chegaralarini oshirishga imkon bergan;

uran ishlab chiqarish texnogen obyektlarining mahalliy hududlarida radiatsion holatni baholashning ishlab chiqilgan usuli "NKMK" AJ da qo'llanilgan ("Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJning 2023-yil 5-oktyabrdagi 23-01-07/489-sonli ma'lumotnomasi). Natijalardan foydalanish uranni yer ostida tanlab eritish sanoat maydonlarida, uran chiqindilari omborlarida va kernlarini saqlash joylarida radiatsion holatni nazorat qilishga xizmat etgan;

turli uran ishlab chiqarish obyektlari namunalari uchun uran yemirilish zanjiridagi radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanatning buzilish qiymatlariga asoslanib, "NKMK" AJ "Uran namunalari yoshini aniqlash uchun radioaktiv muvozanat koeffitsiyentlari – K_m parametrlarini hisoblash" kompyuter dasturi paketi ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining 01.02.2023-y. DGU 21848-sonli guvohnomasi). Ishlanmadan foydalanish uranni qayta ishlash va saqlash mahsulotlarida yemirilish zanjiri radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanatning buzilish darajasini baholash imkonini bergan.


Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 13 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilgan, hamda dasturiy ta'minot uchun Adliya vazirligining guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 118 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** mavzuning dolzarbligi, uning asoslanganligi yoritilib, o'tkazilgan tadqiqotlar respublikaning fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi hamda muammoning o'rganilganlik darajasi belgilangan, tadqiqotning maqsadi hamda vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyektlari, subyektlari va usullari haqida ma'lumot berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amalga oshirish, ishni sinovdan o'tkazish, shuningdek, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.



2-rasm. Rentgenflyuorissent tahlil asosida olingan ikkinchi uran keri namunasining spektri

O‘nta uran keri namunalarning rentgenflyuorissent tahlil natijalardan ma’lum bo‘ldiki, ulardagi uran miqdori o‘rtacha 119 g/t dan 162 g/t gacha oraliqda o‘zgarib turar ekan. Uran namunalarning umumiy solishtirma aktivligi turli xil ^{234}U , ^{230}Th , ^{226}Ra , ^{222}Rn radionuklidlar aktivliklarining yig‘indisidan iborat. Ular orasida maksimal hissani asosiy gamma-nurlanish chiqaruvchi radionuklid bo‘lgan ^{226}Ra beradi. Uni uran namunalarda aniqlash uchun “Progress-Gamma” va “Canberra” qurilmalari yordamida gamma-spektrometrik tahlil usuli qo‘llanilgan.

Uran namunalarda $^{226}\text{Ra}/^{238}\text{U}$ o‘rtasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti – K_{rm} bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar yordamida radiatsiya fonining qiymatlarini aniqlash mumkin.

Radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti – K_{rm} quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_{rm} = \frac{A_{Ra}}{A_U} = \frac{m_{Ra} \cdot \mu_U \cdot T_{1/2(U)}}{m_U \cdot \mu_{Ra} \cdot T_{1/2(Ra)}} \quad (1)$$

bunda, A_{Ra} va A_U – o‘rganilayotgan namunalardagi radiy hamda uran aktivliklari, m_{Ra} – radiyning massaviy ulushi, μ_U – uranning molyar massasi, $T_{1/2(U)}$ – uranning yarim yemirilish davri, m_U – uranning massaviy ulushi, μ_{Ra} – radiyning molyar massasi, $T_{1/2(Ra)}$ – radiyning yarim yemirilish davri.

1-jadvalda ^{226}Ra va ^{238}U aktivliklarini $^{226}\text{Ra}/^{238}\text{U}$ orasidagi radioaktiv muvozanat bo‘lganda – K_{rm} va muvozanat buzilgandagi – K_{rm} aktivliklarining qiymati keltirilgan. Namunalarda ^{238}U aktivligi oshishi bilan ^{226}Ra aktivligi ham parallel ravishda oshishini ko‘rish mumkin. Shunday qilib, ^{238}U aktivligining – $3,98 \cdot 10^6$ Bk qiymatida, ^{226}Ra radionuklidining aktivligi – $1,07 \cdot 10^4$ Bk ni tashkil qilsa, ^{238}U aktivligining – $11,70 \cdot 10^6$ Bk qiymatida ^{226}Ra ning aktivligi – $3,16 \cdot 10^4$ Bk ga oshganligini kuzatish mumkin.

^{226}Ra va ^{238}U aktivliklarini $^{226}\text{Ra}/^{238}\text{U}$ orasidagi radioaktiv muvozanat bo'lganda va muvozanat buzilgandagi aktivliklarining qiymatlari

| T/r | ^{226}Ra va ^{238}U orasidagi radioaktiv muvozanat holdagi radionuklidlar aktivligi, Bk | | ^{226}Ra va ^{238}U orasidagi radioaktiv muvozanat buzilgandagi radionuklidlar aktivligi, Bk | |
|-----|---|---------------------------------|--|---------------------------------|
| | $^{238}\text{U} \cdot 10^6$ | $^{226}\text{Ra} \cdot 10^{-4}$ | $^{238}\text{U} \cdot 10^6$ | $^{226}\text{Ra} \cdot 10^{-4}$ |
| 1 | 3,98 | 1,07 | 4,95 | 1,78 |
| 2 | 4,38 | 1,16 | 6,21 | 2,27 |
| 3 | 5,60 | 1,51 | 8,11 | 2,75 |
| 4 | 6,91 | 1,86 | 9,37 | 6,47 |
| 5 | 7,18 | 1,94 | 10,14 | 3,84 |
| 6 | 8,60 | 2,32 | 12,9 | 4,55 |
| 7 | 9,43 | 2,55 | 17,69 | 7,88 |
| 8 | 11,70 | 3,16 | 23,11 | 9,32 |

2-jadvalda keltirilgan natijalar ekvivalent doza quvvati qiymatlarining ^{226}Ra va ^{238}U radionuklidlar miqdoriga hamda uran kernlari va uran otvallari saqlash joylaridagi namunalar tarkibidagi ^{226}Ra va ^{238}U radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyentining K_{rm} buzilish kattaligiga bog'liqligidan dalolat beradi.


2-jadval

Ekvivalent doza quvvati qiymatining (EDQ) ^{226}Ra va ^{238}U radionuklidlar miqdori hamda namunalarining saqlash joylaridagi ^{226}Ra va ^{238}U radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanat buzilish koeffitsiyentiga K_{rm} bog'liqligi


| Kern namunalardagi uran konsentratsiyasi, (g/t) | | EDQ, ($\mu\text{Sv/h}$) | | Chiqindi namunalardagi uran konsentratsiyasi, (g/t) | | EDQ, ($\mu\text{Sv/h}$) |
|--|------------------|---------------------------|--|---|------------------|---------------------------|
| $^{226}\text{Ra} \cdot 10^{-6}$ | ^{238}U | | | $^{226}\text{Ra} \cdot 10^{-6}$ | ^{238}U | |
| Radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanat holda | | | | | | |
| 88,7 | 264,6 | 0,764 | | 23,8 | 70 | 0,471 |
| 188,6 | 564,6 | 1,398 | | 37,4 | 110 | 0,515 |
| 251,8 | 765,1 | 1,972 | | 44,2 | 130 | 0,569 |
| 298,0 | 890,3 | 2,216 | | 56,1 | 165 | 0,602 |
| 345,3 | 1031,2 | 2,547 | | 60,7 | 175 | 0,657 |
| Radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanat buzilgan holatida | | | | | | |
| 587 | 1150 | 3,247 | | 106 | 208 | 1,439 |
| 670 | 1232 | 3,403 | | 156,7 | 256 | 2,767 |
| 840 | 1370 | 4,708 | | 151,2 | 278 | 2,926 |
| 986 | 1450 | 4,984 | | 132,6 | 300 | 2,154 |
| 1440 | 1512 | 5,238 | | 126,5 | 310 | 2,093 |

Effektiv doza quvvatiing qiymatlari ma'lum bir hudud uchun gamma-nurlanishining tabiiy fon qiymatlaridan 3 martadan 30 martagacha farq qiladi.

3- va 4-raslarda ekspozitsion doza quvvati (EDQ) qiymatining o'zgarishi uran otvallari hamda kern namunalaridagi ^{226}Ra va ^{238}U konsentratsiyasiga bog'liqlik grafiklari keltirilgan. Fizik birliklar sistemasida effektiv doza quvvati (EDQ) qiymati $\mu\text{Sv}/\text{soat}$ (mikroZivert/soat) bilan o'lchanadi. Fizik birliklar sistemasidan tashqari EDQ qiymati $1 \mu\text{Sv}/\text{soat}$ $100 \mu\text{R}/\text{h}$ ga teng.



3-rasm. Uranning chiqindi va kern namunalarida ^{226}Ra konsentratsiyasi bilan EDQ qiymatlarining o'zgarishiga bog'liqlik




4-rasm. Uranning chiqindi va kern namunalarida ^{238}U konsentratsiyasi bilan EDQ qiymatlarining o'zgarishiga bog'liqlik

Ma'lum bir hudud tabiiy radiatsion fon qiymatining effektiv doza quvvatining farqlanishiga sabab shu hududdagi radioaktiv uran namunalari miqdorlari va ular tarkibidagi ^{226}Ra va ^{238}U radionuklidlari miqdorlarining har xilligidir. Boshqacha qilib aytganda, radioaktiv uran namunalarining hajmi hamda ^{226}Ra va ^{238}U radionuklidlari miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, ushbu obyekt fon qiymati

shunchalik yuqori bo‘ladi. Bundan tashqari, effektiv doza quvvati kattaligi, uran kern va uran otvallari saqlash joylaridagi ^{226}Ra va ^{238}U radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanatning koeffitsiyenti – K_{rm} buzilishiga bog‘liq.


5-rasmda uran ishlab chiqarish obyektlarida effektiv doza quvvati qiymatlari va A_{Ra} – radionuklidining solishtirma aktivligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatilgan.



5-rasm. Uran ishlab chiqarish korxonalarida ekspozion doza quvvati qiymatlari va radionuklidning solishtirma aktivligi qiymatlari orasidagi bog‘liqlik A_{Ra} (Bk/g)

5-rasmdan ko‘rinib turibdiki, A_{Ra} radionuklidining solishtirma aktivligi $3,5 \cdot 10^{10} \text{ Bk/g}$ dan $8,5 \cdot 10^{10} \text{ Bk/g}$ gacha oshishi bilan effektiv doza quvvati qiymatlari $18 \mu\text{Sv/h}$ dan $82 \mu\text{Sv/h}$ gacha oshadi.

6-rasmda uran ishlab chiqarish korxonalarida effektiv doza quvvati qiymatlarining ^{226}Ra va ^{238}U radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti qiymatlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan.



6-rasm. Uran ishlab chiqarish korxonalarida ekspozion doza quvvati va $^{226}\text{Ra}/^{238}\text{U}$ radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti qiymatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik

$K_{\text{rm}}=1$ da effektiv doza quvvatining qiymatlari $15 \mu\text{Sv/h}$ dan $20 \mu\text{Sv/h}$ gacha tabiiy fon diapazoni oralig‘ida o‘zgaradi. $K_{\text{rm}}=1,16$ da effektiv doza quvvatining qiymatlari $18 \mu\text{Sv/h}$ dan $24 \mu\text{Sv/h}$ gacha oralig‘ida o‘zgaradi. $K_{\text{rm}}=1,22$ da effektiv doza quvvatining qiymatlari $20 \mu\text{Sv/h}$ dan $28 \mu\text{Sv/h}$ gacha oralig‘ida o‘zgaradi, $K_{\text{rm}}=1,36$ da effektiv doza quvvatining qiymatlari $23 \mu\text{Sv/h}$ dan $31 \mu\text{Sv/h}$ gacha oralig‘ida o‘zgaradi, $K_{\text{rm}}=1,45$ da, effektiv doza quvvatining qiymatlari $25 \mu\text{Sv/h}$ dan $34 \mu\text{Sv/h}$ gacha oralig‘ida o‘zgaradi, $K_{\text{rm}}=1,61$ effektiv doza quvvatining qiymatlari $27 \mu\text{Sv/h}$ dan $42 \mu\text{Sv/h}$ gacha oralig‘ida o‘zgaradi, $K_{\text{rm}}=1,81$ da, effektiv doza quvvatining qiymatlari $32 \mu\text{Sv/h}$ dan $58 \mu\text{Sv/h}$ gacha oralig‘ida o‘zgaradi,

$K_{rm}=2,16$ da, effektiv doza quvvatining qiymatlari $38 \mu\text{Sv/h}$ dan $67 \mu\text{Sv/h}$ gacha oralig'ida o'zgaradi. Va nihoyat $K_{rm}=2,34$ da, effektiv doza quvvatining qiymatlari $45 \mu\text{Sv/h}$ dan $82 \mu\text{Sv/h}$ gacha oralig'ida o'zgaradi. Ushbu bog'liqlik K_{rm} ning ortishi bilan samarali doza quvvati chiziqli ravishda oshib borishini tasdiqlaydi va tabiiy fonning o'zgarishiga olib keladi. Tabiiy fonning ortishi mintaqa ekologiyasi va xodimlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning "Uran yemirilish zanjiri radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanat parametriga ko'ra uran rudalari va namunalarining yoshini aniqlash metodikasi" deb nomlangan uchinchi bobida uran yemirilish zanjiri radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanatning buzilish koeffitsiyentiga ta'sir qiluvchi omillar keltirilgan. Uran parchalanish zanjiridagi radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanatning buzilishi koeffitsiyentiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri bu ularning tepki energiyasidir. Alfa-yemirilishlar vaqtida bir element yadrolari boshqa element yadrolariga aylanadi. Uranning tabiiy yemirilish zanjirida ^{238}U dan ^{234}U ga, ^{234}U dan ^{234}Th ga, ^{234}U dan ^{234}Th ga va nihoyat ^{234}Th dan ^{226}Ra ga o'zgaradi hamda hokazo. Radionuklidlarning atom massasi alfa-yemirilish natijasida kamayishi bilan radionuklidlarning tepki energiyasi – E_{tep} ortadi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Ona yadrodan α -zarrachaning uchib chiqish hisobiga radionuklidlarning tepki energiyalari – E_{tep} qiymatlari

| Radionuklidning atom massasi | Yemirilish sxemasi | E_{tep} - tepki energiya, MeV |
|------------------------------|--|--|
| ^{238}U | $^{238}\text{U} \xrightarrow{\alpha} ^{234}\text{Th}$ | 0,0700 |
| ^{234}U | $^{234}\text{U} \xrightarrow{\alpha} ^{230}\text{Th}$ | 0,0816 |
| ^{230}Th | $^{230}\text{Th} \xrightarrow{\alpha} ^{226}\text{Ra}$ | 0,0813 |
| ^{226}Ra | $^{226}\text{Ra} \xrightarrow{\alpha} ^{222}\text{Rn}$ | 0,0846 |
| ^{222}Rn | $^{222}\text{Rn} \xrightarrow{\alpha} ^{218}\text{Po}$ | 0,0989 |
| ^{218}Po | $^{218}\text{Po} \xrightarrow{\alpha} ^{214}\text{Pb}$ | 0,1100 |
| ^{214}Po | $^{214}\text{Po} \xrightarrow{\alpha} ^{210}\text{Pb}$ | 0,1438 |

3-jadvalda keltirilgan natijalardan ko'rinib turibdiki, tepki energiyaning – E_{tep} qiymatlari $0,0700 \text{ MeV}$ dan $0,1438 \text{ MeV}$ gacha o'zgaradi. Bu fakt shundan dalolat beradiki, radionuklidning atom massasi kamayishi bilan ularning tepki energiyasi chiziqli ravishda ortadi. Nazariy hisoblashlar natijasida radionuklidlarning tepki energiyasi radioaktiv muvozanat koeffitsiyentiga oz miqdorda bo'lsa ham ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Quyidagi formulaga asoslanib, uran namunalarining yoshini hisoblash mumkin:

$$t = \frac{\ln\left(\frac{Ra}{0,34 \cdot K_{rm} \cdot Pb}\right)}{\lambda_U} \quad (2)$$

Ushbu formulada uran namunalarining yoshini aniqlashda radiy, uran va qo‘rg‘oshin konsentratsiyalari, shuningdek, radioaktiv muvozanat koeffitsiyentlari – K_{rm} o‘rtasidagi bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.

4-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, ^{226}Ra va ^{238}U radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti – K_{rm} hamda namunalar yoshi orasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish mavjud.


4-jadval

Uran namunalari yoshining Ra, U, Pb miqdoriga va radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti – K_{rm} ga bog‘liqlik natijalari

| № | Namuna tarkibi, (g/t) | | | K_{rm} | Tanlangan namunaning yoshi – T, (mlrd.yil) |
|---|-----------------------|------------------|-------------------|----------|--|
| | ^{226}Ra | ^{238}U | ^{206}Pb | | |
| 1 | 41,5 | 72,2 | 23,6 | 3,75 | 2,089±0,104 |
| 2 | 36,6 | 65,1 | 22,7 | 3,43 | 2,110±0,106 |
| 3 | 28,0 | 60,3 | 20,3 | 2,90 | 2,180±0,109 |
| 4 | 30,2 | 71,5 | 24,1 | 2,60 | 2,270±0,112 |
| 5 | 32,4 | 80,2 | 27,6 | 2,40 | 2,364 ±0,118 |
| 6 | 27,8 | 73,5 | 25,9 | 2,15 | 2,500±0,125 |

^{226}Ra va ^{238}U radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti – K_{rm} ning qiymatlari qanchalik yuqori bo‘lsa, bu namunalarning yoshi shunchalik kichik bo‘ladi. Bu fakt yoshi katta namunalarda ^{238}U miqdori ^{226}Ra dan katta bo‘lishi bilan tasdiqlanadi, chunki $T_{1/2}$ radiyning yarim yemirilish davri 1600-yil uranning yarim yemirilish davriga ($4,5 \cdot 10^9$ yil) qaraganda kamroq. 7-rasmda radioaktiv muvozanat koeffitsiyentining namunalar yoshiga bog‘liqligi grafigi ko‘rsatilgan.

7-rasmdan ko‘rinib turibdiki, radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti – K_{rm} va namunalarning yoshi o‘rtasida chiziqli bog‘liqlik mavjud. Namuna tarkibidagi radionuklidlarning yarim yemirilish davrlari turlicha ekanligini hisobga olsak, ^{226}Ra ($T_{1/2}=1600$ -yil) miqdori ^{238}U ($T_{1/2}=4,5 \cdot 10^9$ yil) miqdoriga nisbatan tezroq yemiriladi.



7-rasm. Namuna yoshining radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti $K_{rm} = ^{226}\text{Ra}/^{238}\text{U}$ ga bog‘liqligi

Shunday qilib, uran namunalarining yoshi va radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti K_{rm} o'rtasida chiziqli bogliqlik mavjudligiga olib borilgan tajribalar asosida eksperimental isbotlandi. Bu radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti qiymatlari yuqori bo'lgan namunalar yoshroq ekanligini ko'rsatadi. Bu fakt namunadagi ^{226}Ra miqdori ^{238}U miqdoriga qaraganda vaqt o'tishi bilan tezroq kamayishini tasdiqlaydi, chunki ^{226}Ra ning yarim yemirilish davri ^{238}U dan 2,8 million marta kam.

Dissertatsiyasining **“Radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti – K_{rm} ni aniqlash va ulardan texnogen obyektlarning radioekologik monitoringi uchun foydalanish”** deb nomlangan to'rtinchi bobida, ^{226}Ra va ^{238}U radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyentini K_{rm} aniqlash bo'yicha eksperimental ravishda olingan natijalar keltirilgan. 6-jadvalda olingan namunalarda ^{226}Ra va ^{238}U konsentratsiyalarini eksperimental aniqlash natijalari keltirilgan.

6-jadval

^{238}U va ^{226}Ra radionuklidlarining aniqlangan konsentratsiyalari hamda ular orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyentlari – K_{rm} natijalari


| № namuna | ^{226}Ra namunalardagi konsentratsiyasi, g/t | ^{238}U namunalardagi konsentratsiyasi, g/t | Radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti, K_{rm} |
|----------|---|--|---|
| 1 | 19,67 | 40 | 1,4 |
| 2 | 34,10 | 37 | 2,7 |
| 3 | 38,10 | 40 | 2,8 |
| 4 | 99,40 | 510 | 0,57 |
| 5 | 67,05 | 47 | 4,1 |
| 6 | 13,67 | 35 | 1,1 |
| 7 | 39,45 | 41 | 2,8 |
| 8 | 54,02 | 40 | 3,9 |
| 9 | 49,05 | 40 | 3,6 |
| 10 | 59,32 | 46 | 3,7 |
| 11 | 29,89 | 46 | 1,9 |
| 12 | 5,81 | 32 | 0,5 |
| 13 | 26,37 | 47 | 1,6 |
| 14 | 26,21 | 49 | 1,5 |
| 15 | 5,67 | 31 | 0,54 |
| 16 | 2,45 | 30 | 0,24 |
| 17 | 29,83 | 57 | 1,5 |
| 18 | 63,00 | 56 | 3,3 |
| 19 | 58,91 | 54 | 3,2 |
| 20 | 54,17 | 41 | 3,7 |

Olingan natijalar asosida ^{226}Ra va ^{238}U radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyentlari hisoblangan. Olingan 20 ta real namunalarda ^{226}Ra radionuklidining konsentratsiyasi 2,45 g/t dan 99,40 g/t gacha chegarada, ^{238}U

radionuklidining konsentratsiyasi 30 g/t dan 150 g/t gacha chegarada va radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti K_{rm} qiymati 0,24 dan 4,1 gacha chegarada o'zgarishi hisoblab topildi.

O'tkazilgan tajribalar uran otvallaridan olingan namunalarda ^{226}Ra va ^{238}U radionuklidlar konsentratsiyasi keng diapazonda o'zgarishini ko'rsatadi. Bular o'rtasida aniq radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti buzulish kuzatildi. Bu fakt hududda tabiiy radiatsion fonining oshishiga ta'sir qiluvchi sabab bo'lishi mumkin. Ushbu omilni o'rganish asosida uran ishlab chiqarish jarayonlarining xodimlarga va atrof-muhitga texnogen ta'sirini oldini olish choralarini ishlab chiqish mumkin.

8-rasmda uran mahsulotlari (uran ximkonsentrat) tarkibida ^{234}U va ^{238}U radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyentining K_{rm} effektiv doza quvvatiga bog'liqligi keltirilgan.



8-rasm. Uran mahsulotlari (uran ximkonsentrat) tarkibida ^{234}U va ^{238}U radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti – K_{rm} ning effektiv doza quvvatiga bog'liqligi

Ushbu 8-rasmdan ko'rish mumkinki, uran mahsulotlarini saqlash joylarida effektiv doza quvvati (EDQ) qiymatlari chiziqli ravishda 5,0 $\mu\text{Sv/h}$ dan 25,0 $\mu\text{Sv/h}$ gacha oshadi. Bu o'sish uran mahsulotlari (uran kimyoviy konsentratlari) tarkibidagi ^{234}U va ^{238}U radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti – K_{rm} ga to'g'ridan-to'g'ri proporsionaldir.

7-jadvalda effektiv doza quvvati qiymatlarining radioaktiv muvozanat koeffitsientlari o'zaro bog'liqligi keltirilgan.

Uran mahsulotlari saqlash joylaridagi effektiv doza quvvati – EDQ qiymatlarining radioaktiv muvozanat koeffitsiyentiga o‘zaro bog‘liqligi

| 1 chiziq | | 2 chiziq | | 3 chiziq | |
|----------|--------------------------|----------|--------------------------|----------|--------------------------|
| K_{rm} | EDQ, $\mu\text{Sv/soat}$ | K_{rm} | EDQ, $\mu\text{Sv/soat}$ | K_{rm} | EDQ, $\mu\text{Sv/soat}$ |
| 1,35 | 4,0 | 1,17 | 4,5 | 0,81 | 4,2 |
| 1,54 | 11,0 | 1,23 | 9,2 | 1,04 | 10,0 |
| 1,62 | 16,0 | 1,31 | 16,0 | 1,11 | 15,0 |
| 1,76 | 20,0 | 1,40 | 19,2 | 1,26 | 19,8 |
| 1,93 | 24,8 | 1,62 | 24,2 | 1,38 | 24,0 |

Yuqoridagi 7-jadvalda keltirilgan eksperimental ma’lumotlarga asoslanib, ^{234}U va ^{238}U radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti – K_{rm} qiymatining oshishi, uran mahsulotlarini saqlash joylarida radiatsion fonning oshishiga olib kelishini xulosa qilish mumkin. Bunga sabab solishtirma aktivligi – $2,3 \cdot 10^8$ Bk/g ga teng bo‘lgan ^{234}U qiz radionuklidi ulushining ^{238}U ona yadrosi solishtirma aktivligi – $1,25 \cdot 10^4$ Bk/g ga nisbati taxminan 10 000 marta katta ekanligi hisoblanadi. Shunday qilib, qiz radionuklid ^{234}U faolligining ta’siri radiatsion fonni sezilarli darajada oshiradi va uran mahsulotlarini xavfsiz saqlash hamda qayta ishlash uchun murakkab holatni yaratadi.

XULOSALAR

“Uran yemirilish zanjiri radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat buzulishini baholash” mavzusida texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun olib borilgan dissertatsiya ishi tadqiqotlari asosida quyidagicha xulosalar qilindi:

1. Uran rudalari tarkibidagi ^{206}Pb miqdorini aniqlash diapazoni 10 g/t dan 2000 g/t gacha oraliqda bo‘lgan atom - absorbsion va mass - spektrometrik usullari ishlab chiqilgan hamda uran qazib oluvchi korxonalar amaliyotida qo‘llanilgan. Ushbu tahlil usullariga ko‘ra, real uran kern namunalarida qo‘rg‘oshinning miqdori 20,3 g/t dan 27,6 g/t gacha bo‘lgan oraliqda aniqlandi. Qo‘rg‘oshin izotoplari miqdori bo‘yicha eksperimental ravishda olingan ushbu qiymatlar asosida Zafarobod konlari uran rudalarining yoshi aniqlandi. Ushbu ma’lumotlar uran konlarining geologik yoshini aniqlash imkonini beradi, bu esa uran rudalarining paydo bo‘lishining geokimyoviy mexanizmlarini tushuntiradi.

2. Energodispers rentgenoflyuorissensiyon tahlil usuli asosida uran namunalarida 0,1 g/t – 1000 g/t oralig‘ida ^{238}U miqdorini aniqlash usuli ishlab chiqilgan. Turli rudalardagi uran miqdorini aniqlash uchun ushbu usuldan foydalanish tajribalarning metrologik xarakteristikalarini optimallashtirish va yaxshilash imkonini beradi. Tajribaning ana shu optimal metrologik xarakteristikalari asosida O‘zbekiston

Respublikasining Qizilqum mintaqasidagi uran rudalarining yoshini aniqlashning chegaralarini ishonchli oshirish mumkin.

3. Aniqlanishicha, uran mahsulotlari tarlibidagi ^{234}U radionuklidi miqdorining o'zgarishi bilan bog'liq holda, ^{234}U va ^{238}U radionuklidlari orasida radioaktiv muvozanatning buzilishi kuzatiladi, masalan, №1 namunada ^{234}U radionuklidining miqdori 48,4 $\mu\text{g/g}$ dan 50,3 $\mu\text{g/g}$ gacha, №2 namunada 49,8 $\mu\text{g/g}$ dan 51,5 $\mu\text{g/g}$ gacha, №3 namunada 65,6 $\mu\text{g/g}$ dan 69,9 $\mu\text{g/g}$ gacha, №4 namunada 53,2 $\mu\text{g/g}$ dan 57,2 $\mu\text{g/g}$ gacha va №5 namunada 50,1 $\mu\text{g/g}$ dan 52,3 $\mu\text{g/g}$ gacha. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ^{234}U va ^{238}U radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti ^{234}U radionuklidining radioaktiv muvozanat vaqtidagi 53,41 $\mu\text{g/g}$ qiymatidan ancha farq qiladi. Normadan chetga chiqish radiatsion xavfsizlik bilan bog'liq potensial xavflarni yuzaga keltirishi mumkin, shuning uchun bunday og'ishlarga jiddiy e'tibor berish tegishli soha uchun maqsadli va zarur ishdir.

4. Uran parchalanish zanjiridagi radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyentlarining tadqiqoti va aniqlangan qiymatlari uran mahsulotlari hamda uran tarkibidli qattiq namunalarni saqlash joylarida tabiiy fon qiymatining orshishi sababi ekanligini ko'rsatdi. Uran mahsulotlarini saqlash joylarida effektiv doza qiymati – EDQ ning 5,0 $\mu\text{Sv/soat}$ dan 25,0 $\mu\text{Sv/soat}$ gacha chiziqli oshishi ^{234}U va ^{238}U radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti – K_{rm} qiymatining 1,35 dan 1,93 gacha o'sishiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar uran mahsulotlari va uran tarkibli qattiq namunalarni saqlash joylarida radiatsion fon qiymatlarini har tomonlama monitoring qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

5. Radioaktiv muvozanat koeffitsiyenti – K_{rm} ni aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan usullar atrof-muhitga va xodimlarga radiatsion ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni o'tkazish imkonini beradi. Quyidagilarni bajarish tavsiya etiladi: birinchidan, radioaktiv muvozanati buzilgan holdagi radionuklid tarkibga ega bo'lgan uran tarkibli qattiq namunalarni va suyuq uran tarkibli mahsulotlarni uzoq vaqt saqlamaslik; ikkinchidan, uran tarkibli qattiq namunalarni va suyuq uran tarkibli mahsulotlarni radioaktiv muvozanat koeffitsiyentini doimiy tahlil qilib borish; uchinchidan, uran tarkibli qattiq namunalarni va suyuq uran tarkibli mahsulotlarni saqlash joylarida xodimlarning o'tkazadigan vaqtini cheklash.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ЯДЕРНОЙ ФИЗИКИ**

**НАВОИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

**НАВОИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ГОРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

СОЛИЕВ ТУРСУНБОЙ ИЗЗАТИЛЛО УГЛИ

**ОЦЕНКА НАРУШЕНИЙ РАДИОАКТИВНОГО РАВНОВЕСИЯ
МЕЖДУ РАДИОНУКЛИДАМИ В ЦЕПОЧКЕ РАСПАДА УРАНА**

01.04.01 – Приборы и методы экспериментальной физики

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2019.3PhD/FM411

Диссертация выполнена в Навоийском государственном педагогическом институте и Навоийском государственном горно-технологическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.inp.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

| | |
|-------------------------------|--|
| Научный руководитель: | Музафаров Амрулло Мустафаевич доктор химических наук, доцент |
| Официальные оппоненты: | Курбанов Бахтияр Ибрагимович доктор технических наук, профессор Кулматов Рашид Анорович доктор химических наук, профессор |
| Ведущая организация: | Самаркандский государственный университет имени Ш.Рашидова |

Защита диссертации состоится « _____ » _____ 2024 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM/Т.33.01 при Институте ядерной физики (Адрес: 100214, Ташкент, пос. Улугбек, ИЯФ. Тел.: (+99871) 289-31-41; факс: (+99871) 289-36-65; e-mail: info@inp.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ядерной физики (регистрационный номер _____). Адрес: 100214, Ташкент, пос. Улугбек, ИЯФ АН РУз. Тел.: (+99871) 289-31-19.

Автореферат диссертации разослан « _____ » _____ 2024 г.
(протокол рассылки № _____ от « _____ » _____ 2024 г.).

М.Ю. Ташметов
Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

О.Р.Тожибоев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению
ученых степеней, PhD физ.-мат. наук,
старший научный сотрудник

И.Нуритдинов
Зам. председателя Научного семинара
при Научном совете по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Одним из альтернативных энергоносителей в мире в настоящее время являются урановые руды, из которых получают ядерное топливо, используемое в работе атомных электростанций. В процессе добычи урана и его превращения в ядерное топливо необходимо соблюдать особые меры предосторожности с точки зрения чистоты продукта и радиационного влияния на персонал. Урановые продукты, пригодные для использования в качестве ядерного топлива, должны соответствовать установленным Международным требованиям по своему радионуклидному составу. Кроме этого, увеличение содержания одного из радионуклидов – ^{234}U , ^{235}U , ^{226}Ra в урановом продукте или ураносодержащей пробе приведёт к увеличению радиационного фона в местах хранения данного продукта и ураносодержащих проб. В связи с этим необходимо уделять особое внимание решению вопросов оценки факторов нарушений радиоактивного равновесия между радионуклидами в цепочке распада урана.

На сегодняшний день в мире проводятся научные исследования по разработке различных ядерно-физических методов идентификации радионуклидов – ^{238}U , ^{235}U , ^{234}U , ^{226}Ra , определению их содержания и оценке нарушений радиоактивного равновесия между радионуклидами – $^{234}\text{U}/^{238}\text{U}$ и $^{226}\text{Ra}/^{238}\text{U}$ в урановых продуктах и твёрдых ураносодержащих пробах, а также определению факторов влияющих на коэффициент радиоактивного равновесия между ними. Результаты такого исследования позволят разработать эффективные меры защиты от вредного воздействия излучений, в том числе минимизировать значения радиационного фона в местах хранения ураносодержащих проб, что соответствует международным и республиканским нормативам.

В нашей Республике достигнуты определённые результаты по разработке практических и теоретических научных основ ядерно-физических методов контроля радиационного воздействия процессов производства урана на персонал и окружающую среду. Ряд научных и практических результатов достигаются внедрением опережающих научных обоснованных мероприятий, отмеченных в третьем направлении стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 гг. Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Нового Узбекистана на 2022-2026 гг.» определены такие важные задачи как «...продолжение производственной политики по обеспечению стабилизации национальной экономики, увеличение доли промышленного производства всего валового продукта в 1,4 раза...»³, «...утилизация, обезвреживание, консервация и обеспечение того, чтобы техногенные

³ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

отходы не отклонялись от установленных лимитов...»⁴. В этой связи важны научные исследования, оценивающие радиоактивное равновесие между радионуклидами в цепочке распада урана.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Нового Узбекистана на 2022-2026 гг.», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 4 октября 2019 года № ПП-4477 «Об утверждении стратегии по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019-2030 годов», а также другими нормативно-правовыми документами, принятыми в данной сфере.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики II. «Энергетика, энергосбережение и альтернативные источники энергии».

Степень изученности проблемы. Значительный вклад в развитие науки и практики по оценке радиоактивного равновесия между радионуклидами в цепочке распада урана внесли зарубежные учёные, например: американские (John Arrington, Ursula Bassler, Sekhar Basu, Felix Boehm, Walter Dunham Claus, Harry Wilks Fulbright, Alexandra Gade, Magdalena Gonzalez Sanchez, Hanna Nasser), российские (С.В. Шурыгин, В.А. Овсейчук, Б.Н. Ласкорин, Д.П. Лобанов, В.Ж. Аренс, О.А. Джабиев, В.Н. Мясоедов, В.А. Грабовников, О.М. Гридин, Е.А. Аврорин, А.П. Александров, Л.А. Алехин, В.А. Александров, Л.А. Арцимов, В.К. Боболев, Е.Н. Бабулев, И.К. Кикоин, И.В. Курчатова, А.И. Лейпунская, И.Д. Морохов, А.К. Петржак, Ф.Я. Овчинников, В.И. Мостовой), узбекистанские (Б.С. Юлдашев, Т.М. Муминов, Р.Б. Бекжанов, С.М. Мухаммедов, А.А. Кист, Р.А. Кулматов, Г.С. Сагтаров) и другие специалисты.

В результате проведенных исследований разработаны ядерно-физические методики идентификации радионуклидов ^{238}U , ^{235}U , ^{234}U , ^{226}Ra и определения их содержания в урановых рудах и ураносодержащих технологических продуктах. Также было замечено, что в цепочке спонтанного распада урана нарушается радиоактивное равновесие между радионуклидами.

Однако до настоящего времени мало изучены вопросы, связанные с ядерно-физическими факторами, влияющими на нарушения радиоактивного равновесия между радионуклидами в цепочке распада урана, которые приводят к снижению качества готового продукта урана и увеличению радиационного фона в складах урановых продуктов.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где

⁴ Постановление № 170 от 30.03.2021 Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об организации деятельности государственного предприятия «Навоиуран», акционерного общества «Навоийский горно-металлургический комбинат» и государственного учреждения «Фонд Навоийского горно-металлургического комбината».

выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках планов научно-исследовательских работ Навоийского государственного горно-технологического университета по теме: БА-А-13-015 «Разработка технологического режима подземного выщелачивания урана с применением местных реагентов» (2020-2022).

